

**O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi
Guliston davlat universiteti**



САМАРСКИЙ
ПОЛИТЕХ
Самарский политехнический университет



**“SIRDARYO VILOYATINI INNOVATION
HUDUDGA**

**AYLANTIRISH: MUAMMO, YECHIM VA
XALQARO TAJRIBA”**

**mavzusidagi xalqaro forsayt formatidagi
ilmiy-amaliy anjuman ishtirokchisi**



**“TRANSFORMING SIRDARYA REGION INTO
INNOVATION REGION:
PROBLEM, SOLUTION AND INTERNATIONAL
EXPERIENCE”**

**participant of the scientific-practical conference
in the format of the international website**

Guliston-2023

**O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi
Guliston davlat universiteti**

**“SIRDARYO VILOYATINI INNOVATION
REGION
TRANSFORMING: PROBLEM, SOLUTION AND INTERNATIONAL
EXPERIENCE”**

**mavzusidagi xalqaro forsayt formatidagi
ilmiy-amaliy anjuman ishtirokchisi**



**“TRANSFORMING SIRDARYA REGION INTO
INNOVATION REGION:
PROBLEM, SOLUTION AND INTERNATIONAL
EXPERIENCE”**

**participant of the scientific-practical conference
in the format of the international website**

TASHKILIIY QO‘MITA RAISI:

**Xodjiyev Muksin Todjiyevich-t.f.d., prof, Guliston davlat universiteti
rektori,
tel: (+998 67) 225-42-75**

RAIS O‘RINBOSARI:

**Zikriyayev Zokir Mamirovich-GulDU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo‘yicha prorektori, i.f.f.d., dots,
tel: (+998 67) 225-38-01**

MAS‘UL KOTIB

**Djurayev Mansur Egamberdiyevich-GulDU Ilmiy tadqiqotlar,
innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i,
g.f.f.d., dots,
tel: +998 99 314 13 23**

A‘ZOLARI:

**Sattorqulov Obidqul Turdiqulovich – GulDU Iqtisodiyot nazariyasi
kafedrasi mudiri, i.f.n., dots,
tel: +998 93 325 85 25**

**Toshtemirov Doniyor Eshboyevich – GulDU Pedagogika va psixologiya
kafedrasi mudiri, p.f.n., dots,
tel: +998 91 100 84 73**

**Uzoqov Akram Xikmatovich – GulDU Rus tili va adabiyoti kafedrasi
mudiri, f.f.f.d. PhD,
tel: +998 94 588 56 65**

**Pozilov Abdushoxid Abduvoidovich – GulDU Ingiliz tili va adabiyoti
kafedrasi mudiri, p.f.f.d., dots,
tel: +998 94 162 35 35**

bor edi. Shu sababli ham u Gulandomning barcha sinovlariga bardosh beradi, malikaning chig'irig'idan yaxshi o'tadi. Buni Gulandomning o'zi ham keyinchalik tan olishga majbur bo'ladi:

Imtihon etmak uchun bema'rhabo so'zlar dedim,

O'lmadi sharhi vafodin sandin o'zga hech javob [5; 119].

Ko'rinadiki, dostonda ishqiy g'azallar yetakchi o'rin tutadi. G'azal janriga xos bo'lgan xususiyatlar dostonlar tarkibida qo'llanilgan g'azallarda ham kuzatiladi. Bu g'azallar g'azal janri talablariga to'liq javob bera oladi. Ularda hattoki taxallus ham qo'llaniladi.

G'azal adabiyotimiz tarixidagi eng mashhur va keng tarqalgan janrlardan biri hisoblanadi. Ularda asosan oshiqning ichki kechinmalari tasviriga e'tibor qaratiladi. Uning qahramoni oshiq va ma'shuqa hisoblanadi. G'azallarda ma'shuqa obraziga asosiy e'tibor qaratilib, unga xos bo'lgan xususiyatlar bayoni oshiqning o'y-fikrlari, mushohadalari va dil izhorlari tarzida aks ettiriladi. Oshiq uchun ma'shuqa visoliga yetish – oson ish emas. Bu yo'lda u qanchadan qancha sinov jarayonidan o'tishi kerak. Sinov davrida haqiqiy oshiq ruhan toblanib, ma'nan yetuklasha boradi. Oshiqlik lirik qahramonni o'ziga xos ruhiy iztiroblar girdobiga tashlaydi va bu holat natijasida paydo bo'lgan qiyinchiliklar azobida ma'shuqa unga faqat salbiy jihatlar bilangina namoyon bo'ladi. Go'yoki, oshiqning tasavvuricha, ma'shuqaning ishi faqat jabr ko'rsatish va jaf qilishdan iborat. Bu xususiyatlar "Bahrom va Gulandom" dostoni tarkidagi g'azallarda ham uchraydi. Biroq dostonida voqealar rivojidan kelib chiqqan holda g'azallardagi mavzu va tasvir ruhi ham o'zgara boradi. Har bir voqea obrazlarga qanday ta'sir ko'rsatsa, g'azallar ham qahramonlarning ruhiga moslasha boradi. Shu sababli ham ular qahramonlarning ichki dunyosi bilan bog'liq jarayonlarni aks ettirishda yuzaga keladi. Ruhiy holat tasvirini to'laqonli ro'yobga chiqarish g'azallarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar. Xullas, yozma adabiyotga mansub dostonlar tarkibida qo'llanilgan g'azallar g'azal janri taraqqiyotida alohida bir bosqich hisoblanadi. Ular obrazlar bilan bog'liq holda yuzaga keladi va qahramonlarning ruhiy dunyosini, ichki kechinmalarini berishda muhim rol o'ynaydi. Bu jihati bilan ular devonlar tarkibidagi g'azallardan farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Valixo'jayev B. O'zbek epik poeziyasi tarixidan. Toshkent, Fan, 1974.
2. Nosirov O. O'zbek adabiyotida g'azal. Toshkent, Adabiyot va san'at, 1972.
3. Orzibekov R. O'zbek lirik poeziyasida g'azal va musammat. Toshkent, Adabiyot va san'at, 1976.
4. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, Sano-standart, 2017.
5. Sayqaliy. Bahrom va Gulandom. Toshkent, Fan, 1960
6. Epic, M. M. S. S. (2020). Bakhrom and Gulandom" and the Folk Tales. Scientific Reports of Bukhara State University, 5(81), 34-38.
7. Rakhmonkulovich, M. M. (2022). Folklore Traditions In The Epos Of Sayyadi "Tohir And Zuhro". Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 14, 4-10.
8. Mamatqulov, M. R. UDK: 809 SAYQALIYNING "BAHROM VA GULANDOM" DOSTONIDA TASHBIH SAN'ATI. ILMIY AXBOROTNOMA, 71.
9. Mamatkulov, M. R. (2020). THE ART OF HYPERBOLE IN THE EPIC NISHATI" HUSN AND DIL". Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(9), 246-252.
10. Mamatqulov, M. (2020). SAYQALIYNING "BAHROM VA GULANDOM" DOSTONIDA IRSOL UL-MASAL SAN'ATI. Filologik ta'limni takomillashtirish muammolari, 176.
11. Rakhmonkulovich, M. M. (2021). Folklore traditions in the epos of sayyadi "Tohir and Zuhra". ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 548-556.
12. Mamatqulov, M. (2021). SAYYADI-GHAZAL WRITER. Bulletin of Gulistan State University, 2021(1), 46-50.

O'ZBEK ADABIYOTIDA HAJVCHILIKNING SHAKLLANISHI

Oqbo'tayev Elbek Abdurazzoq o'g'li

Tayanch-doktorant, Guliston davlat universiteti, 120100

E-mail: masterrprikol@gmail.com Tel: 97 568 02 93

Abstract: This article talks about the emergence, development and development of comic works in Uzbek literature. There are opinions about the appearance of comic works in oral literature and their entry into written literature, about the appearance of works of this direction by great poets and poets in written literature. Information is given about the spiritual and moral side of a comic work, about how its origin influences the work of art.

Key words: Comedy, satire, humor, folklore, anecdote, joke, comic story, mockery.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Adabiyot – barcha zamonlar va makonlar uchun san’atning muhim turi sifatida namoyon bo’lgan. So’zning ustiga qurilgan bu san’at turida har bir ijodkor o’zining g’oyasi, fikrini o’quvchiga ta’sirli qilib yetkazishga harakat qiladi. Bunda ijodkor turli usul va uslublardan foydalanadi. Kimdir didaktik ruhdagi asarlar bilan o’quvchilar qalbida ezgulikni undirishga intilsa, kimdir realistik yo’sinda asar bitib hayotning past-u balandliklarini ijodkor nigohi bilan tasvirlaydi. Dunyo va o’zbek adabiyoti uchun ham birday taaluqli bo’lgan hajviy adabiyot o’zining haqiqatni oshkor ayta olish, illatlarni fosh etish, va eng muhimi insonlarga kulgu tabassum bahsh eta olish xususiyati bilan e’tiborni tortadi.

Xalq ma’naviyati, tafakkur va badiiy saviyasining yuksakligi, shubhasiz, davlat va jamiyatning taraqqiy etishida muhim omil sanaladi. Shu sababdan hamma zamonlarda ham inson ma’naviyatni yuksaltirish, buning uchun eng qimmatbaho xazina sanalmish adabiyot durdonalari bilan yaqindan tanishish va ularni chuqur anglagan holda tahlil etish, xalqqa asarlarni saralab taqdim etish bugungi zamonaviy adabiyot vakillarining, ijodkorlar, adabiyotshunos olimlar, shuningdek, har bir kitobxonning bosh vazifasidir.

Mavzu doirasidagi tahlillar. O’zbek adabiyotida hajviyotning vujudga kelishi haqida fikr yuritilganda bu ijtimoiy hodisa, avvalo, vaqtli matbuot hamda hajvchilik shakllanmagan davrlarda og’zaki tarzda paydo bo’lganligini yana bir bor ta’kidlamoqchimiz. O’zbek hajviy adabiyotining shakllanishi uzoq tarixga ega. “Hajv, satira – voqelikni aks ettirishning alohida g’oyaviy-badiiy mezoni sifatida, – deb yozadi bu haqda adabiyotshunos olim D.Quronov, – barcha rivojlangan xalqlar adabiyoti, shu jumladan, o’zbek xalqining ham og’zaki va yozma adabiyotida qadimdan katta o’rin egallab kelgan. Ijtimoiy illatlarning kulgili tanqidi bo’lgan satira dastavval o’zbek xalq og’zaki ijodida keng tarqalgan edi” [1.210].

Hajviya xalq og’zaki ijodidan boshlanib ulug’ bobokalonlarimiz Alisher Navoiy, Turdi Farog’iy, Maxmur, Muhammad Sharif Gulxaniy, Junaydullo ibn Islomshayx Hoziq, Muhammad Aminxo’ja Muqimiy va Ubaydulla Solih o’g’li Zavqiy kabi shoirlar ijodida gullab yashnadi. Buning ham o’z sabablari, tarixiy-siyosiy ildizlari bor. Kulgu inson uchun eng muhim hissiyotlardan biri bo’lib kelgan. Xalq og’zaki ijodida keng o’rin beriladigan hajviy uslubdagi asarlar, yozma adabiyotimizda ko’zga tashlanavermasdi. Xalq og’zaki ijodida: latifa, askiya, masxara kabi janrlarni ko’plab uchratganimiz holda, yozma adabiyotda Alisher Navoiyning ba’zi asarlarida, Boburning “Boburnoma” asarida hajv elementlari ko’zga tashlansa ham, lekin salmoqli ahamiyat kasb etmaydi. XIX asr, xususan, XIX asrning ikkinchi yarmi o’zbek adabiyotda hajviy uslubdagi asarlar taraqqiy etishi va rivojlanish davri bo’ldi. Buning sabablari bir nechta: hajviy asarlar kimningdir aybini fosh qilishga harakat ma’nosida bo’lsa ham, bu orqali ezgu maqsadni nazarda tutgan bo’lsa ham, islom olamida kimnidir masxara qilish to’g’ri qabul qilinmasligi yoki tarixiy o’zgarishlar davrida millat tanazzuli, milliy erkning qo’ldan boy berilganligi kabi sabablar tufayli hajv tig’i ostidagi muammolar ochib berilishiga moyillik kuchayib borgan.

Buyuk shoir Alisher Navoiy ijodida satira va yumorni tadqiq etish bo’yicha bir necha izlanishlar olib borilgan. A.A’zamovning “Navoiy g’azallarida hazil-mutoyiba” deb nomlangan kitobida mutafakkir shoir ijodida satira va yumorning qo’llanilishi masalasini tadqiq etgan olimlar sanab o’tilgan: “Albatta, Navoiy lirikasidagi yumor ham navoiyshunoslar e’tiboridan chetda qolgan emas. Masalan, mashhur sharqshunos E.Bertels “Lison-ut tayr” dostonining tahliliga bag’ishlangan maqolasida “Navoiy dostonini qancha ko’p o’qisam, u meni shuncha ko’p maftun etardi – u o’zining insoniyligi, muloyim, iliq tili, turkiycha yumori bilan maftun etardi”, - deb yozgan. Navoiy g’azaliyotidagi yumor mavzusi, shuningdek, Sadriddin Ayniy, Maqsud Shayxzoda, Izzat Sulton, Natan Mallaev, Vohid Zohidov, Abduqodir Hayitmetov, Suyima G’anieva, Odiljon Nosirov, Yoqubjon Is’hoqov, Ibrohim Haqqulov, Nusratulla Jumaxo’jaev va boshqa tadqiqotchilar asarlarida u yoki bu darajada tadqiq etilgan. A.Abdug’afurovning Navoiy satirasiga bag’ishlangan ikki jildli tadqiqotida esa

maxsus bir bob yumorga bag'ishlangan. Unda asosiy e'tibor Navoiyning dostonlari hamda nasriy asarlaridagi yumorga qaratilgan" [2.5].

Turdi o'z ijodida ijtimoiy muammolarni hajv orqali tasvirlash orqali o'zbek hajvchilik maktabi poydevorini yana bir qarich balandlatdi. Zavqiy "Hajvi ahli rasta" asarida qirq olti boyni nomma-nom sanab hajv qilgan she'ri Mo'ymanak bozoriga osib qo'yanida o'zbek adabiyotida ilk bor manzilli tanqid, ya'ni muayan insonlarga yo'naltirilgan tanqid paydo bo'ldi. Hajviya bu uslub, o'ylangan g'oyani o'qirmanga yetkazish vositasi hajviy asarda muallif tomonidan "nishon"ga olingan qahramon qaysi qatlam vakili bo'lmasin, uning qusurlari, uning illatlari kulgu vositasida fosh etiladi, albatta. Kulgu o'quvchini o'ziga jalb qiladi, u qahramonlarning xatti-harakatlari, gap- so'zlari tasviridan kuladi.

Inson ruhiyatida shunday holat yashiringanki, u o'zi kulgan, o'zi masxaralagan kishiga o'xshab qolishni, uning ham ustidan kimdir masxara qilishini istamaydi. Insonning bu xususiyatini yaxshi anglagan hajvchilar o'z asarlarida xalqning, millatning dushmanlarni, uning "qonini so'rib yotgan zuluklar" ustidan ayovsiz kuladi.

Yana bir zabardast hajvchi Muqimiy ijodida ham "Tanobchilar", "Viktorboy" "Maskovchi boy ta'rifida", "Voqe'i Viktorboy" "To'yi Iqonbachcha" singari talay hajviy asarlarni uchratish mumkin. Muqimiy "Tanobchilar" she'rida o'z davrining eng muhim muammolaridan biri soliq muammosini ko'taribgina qolmay, ikki soliq yig'uvchining hajviy karikaturasini ham obrazli qilib chizadi. Bu qahramonlarni tasvirlar ekan, ulardagi olchoqlik, maqtanchoqlik, ikkiyuzlamachilik kabi illatlarni hajviy unsurlar bilan boyitib ko'rsatadi. Bu orqali o'qirmanda bu obrazlarga nisbatan xayrixohlik yo'qoladi.

Sodda xalqni avrab-aldeb o'zlarini juda obro'li qilib ko'rsatib xalqning peshona teri evaziga yig'ishtirgan hosilini soliq sifatida olib ketmoqchi bo'lgan ayyor bu kishilarni shoir fosh qilishga intiladi. Shoirning fikri teran, o'n ikki oyda keluvchi bu tilyog'lama maqtanchoqlar boshqalarga rohat keltiruvchi so'zlar bilan yoqsa ham shoir uchun bu azob, buni she'ning boshida qayd etib o'tadi;

O'n ikki oyda keladir bir tanob

O'zgalarga rohat-u manga azob [3.60]

Shoir haqiqatni anglab turadi, chunki Muqimiyning o'zi ham bir muddat yer o'lchovchi bo'lib ishlaydi, bu yerdagi ko'zbo'yamachilik va yulg'ichlikni o'z ko'zi bilan ko'radi, yuragi, vijdoni uyg'oq shoir shu sababdan bu ishni tark etadi.

Jadidchilik g'oyasi kirib kelib, ilg'or fikrlovchi shoirlar o'z asarlarida millatning tanazzuliga sabab bo'lgan omillarni tasvirlash yanada kuchaydi. Bu harakat vakillari muammolarni ko'rsatish, uyquda yotgan millatni ko'zini ochishni o'ziga maqsad qilib oldi. Bu davr hajviy asarlarning soni va sifati sezilarli darajada oshishi bilan xarakterlidir. Tavallo, So'fizoda, Fitrat, Avloniy, Qodiriylar o'z hajviyalari orqali ko'plab muammolarni ko'rsatib beradi.

Jadid adabiyoti necha asrlardan beri yozma adabiyotimizda keng ko'lamda ulushga ega bo'lmagan nasriy asarlarning soni oshishiga ham sabab bo'ldi. Hajviy yo'nalishdagi asarlar uchun nasriy tur ayni muddao bo'ldi. Chunki she'riyat nisbatan siqiq va shakliy qoliplarga bo'ysundirishga moyillik kuchli ekani tufayli, muallifda obrazni atroficha tasvirlash imkoniyati cheklangan bo'lardi.

Nasriy yo'lda ham bir necha o'nlab hajviy asarlar yaratildi. Fitratning "Qiyomat" hikoyasi, Qodiriyning "Toshpo'lat tajang nima deydi", "Kalvak mahzum xotira daftaridan" kabi o'nlab asarlarni misol keltirishimiz mumkin.

Badiiy adabiyotning o'ziga xos eng o'tkir, hozirjavob va ta'sirchan turi bo'lgan satirik asarlar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida har doim muhim o'rin egallab kelgan. Hozirgi kunda satira yanada rivojlanib va kengayib masal, epigramma, burleska, pamflet, feleton, komediya, kino va ko'rsatuvlarlarda, karikatura shaklida namoyon bo'lmoqda. Shu o'rinda, Abdulla Qahhorning satirani inkor etuvchi shaxslar haqidagi quyidagi fikrini ta'kidlashni joiz deb bildik: "Satira o'tiga uchragan kishi, – vijdoni bo'lsa, odamlarning yuziga qarolmaydi, vijdoni bo'lmasa, og'zidan ko'pik sohib, yozuvchining ketidan bolta ko'tarib yuguradi" [4.1].

O'zbek mumtoz badiiyatida hajviy asarlar muayyan ahamiyat kasb etadi. Chunki, adabiyot inson hayotining in'ikosi sifatida odamzod turmushining kulgili jihatlarini aks ettirmasligi, insondagi illatlarni tanqidiy yo'sinda tasvirlamasligi mumkin emas. Ana shu holatning ifodasi sifatida paydo bo'lgan asarlar hajviyotni tashkil etadi. Odamzod paydo bo'libdiki, u kamchilik, nuqson, illat bilan yonma-yon yashaydi. Eng olijanob odamda ham boshqalarga unchalik ma'qul kelmaydigan qandaydir

nuqsonning bo'lishi tabiiydir. Inson komillikka intiladi, lekin unga to'liq erishishi deyarli mumkin emas. Shuning uchun ham odamga yig'i, dard qanchalik doimiy yo'ldosh bo'lsa, kulgi ham shunchalik ajralmas sherikdir.

Afandi latifalari, askiyalar, chandishlar, laparlar o'zbek xalqining asrlar mobaynida kulgidan bahramand bo'lib kelganligini, inson va hayotdagi kulgili jihatlarni nozik ilg'ay olganligini ko'rsatadi. Qolaversa, o'zbek tili shunday nodir xususiyatga egaki, so'zlashuvning o'zidayoq, tabiiy ravishda, kulgi paydo bo'laveradi. Chunki, o'zbek so'zlarining ko'pchiligi kamida ikki ma'noga ega bo'ladi. Ko'rinadiki, hajviy asarlarning birinchi belgisi uning tanqidiy yo'nalishga egaligi bo'lsa, ikkinchi xususiyati tasvirning kulgili tarzda berilishidan iboratdir.

Shuni aytish joizki, hajviy asarlar dunyodagi barcha xalqlarda bo'lishiga qaramay, unga munosabat turli millatlarda o'z ma'naviy-axloqiy o'lchamlaridan kelib chiqqan holda turlichadir. Chunonchi, G'arb ahli bundan necha minglab yillar oldin ham hajviyotga katta e'tibor bilan qaragan. Shu bois, bu o'lkalarda antik zamonlardayoq hajviy adabiyot rivojlangan. Bizning ma'naviyatimizda jiddiyat, andisha ustun bo'lgani uchun ham yozma adabiyotdagi hajviy yo'nalish rivojiga alohida e'tibor qilinmagan. Chunki islomiy axloq o'rinli-o'rinsiz kulishni, birovlarini hajv qilishni unchalik ma'qullamagan. Bu hol badiiy adabiyotimizda hajvchilikning juda ham taraqqiy etishiga imkon bermagan. Lekin diniy, axloqiy aqidalarning qandayligidan qat'iy nazar, hayot insonni kulgili vaziyatlar, kulgi va masxaraga loyiq odamlar orasida bo'lishga majbur qilar ekan, tabiiy ravishda, badiiy hajviyot ham yuzaga kelgan va ma'lum darajada rivojlangan.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar. O'zbek adabiyotida hajviy asarlarning paydo bo'lishi uzoq yillik tarixga ega bo'lsa-da, uning taraqqiy topib rivojlanganiga ko'p asrlar bo'lgani yo'q. O'rganish zarur bo'lgan masalardan biri: o'zbek adabiyotida hajviy yo'nalishdagi asarlar paydo bo'lishi jadid adabiyoti davrigacha nega sust kechgani va jadid adabiyotiga kelib jadal rivojlangani haqida ilmiy tekshirish. Buning sababi siyosiy yoki axloqiy ekanligini tadqiq etish zaruriyati bor. Ikkinchi taklifim hajviy adabiyotizning rivojlangan davrlari jadid hajviy adabiyoti va sovet hajviy adabiyotini o'zaro taqqoslab, farqli va mushtarak jihatlarni aniqlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Xalq merosi, 2004-yil.- 222 bet.
2. A.A'zamov .Alisher Navoiy g'azallarida hazil-mutoyiba.-Toshkent: G'afur G'ulom pomidagi nashriyotiyot-matbaa ijodiy uyi, 2015-y. 120 bet.
3. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/abdulla-qahhor-adabiyot-va-hayot-haqida>.
4. Epic, M. M. S. S. (2020). Bakhrom and Gulandom" and the Folk Tales. Scientific Reports of Bukhara State University, 5(81), 34-38.
5. Rakhmonkulovich, M. M. (2022). Folklore Traditions In The Epos Of Sayyadi "Tohir And Zuhro". Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 14, 4-10.
6. Mamatqulov, M. R. UDK: 809 SAYQALIYNING "BAHROM VA GULANDOM" DOSTONIDA TASHBIH SAN'ATI. ILMIY AXBOROTNOMA, 71.
7. Mamatkulov, M. R. (2020). THE ART OF HYPERBOLE IN THE EPIC NISHATI" HUSN AND DIL". Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(9), 246-252.
8. Mamatqulov, M. (2020). SAYQALIYNING "BAHROM VA GULANDOM" DOSTONIDA IRSOL UL-MASAL SAN'ATI. Filologik ta'limni takomillashtirish muammolari, 176.
9. Rakhmonkulovich, M. M. (2021). Folklore traditions in the epos of sayyadi "Tohir and Zuhra". ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 548-556.
10. Saymuratova, I., To'rayeva, D., & Saidova, S. (2023). BADIY ASARDA TAVSIFLASH VOSITALARI. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(6 Part 3), 19-24.
- Nematullaevna, T. D. (2022). THE WRITER'S WORLD VIEW AND ARTISTIC IDEA. Open Access Repository, 9(12), 163-174.
12. Kholbekovna, F. O. (2021). The Issue of Artistic Idea in Poetry. European Scholar Journal, 2(4), 233-236.

Gulchekhra, K. (2016). On the Specification of Trilogy "Good riddance" by Omon Mukhtor. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 5(7), 16-20.

YOSHLAR ONGIGA MA'NAVIY QADRIYATLARNI SINGDIRISHDA INNOVATSION VA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV

Sariboyeva Maxsuda O'rinboyevna
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati
E-mail: moviy69@mail.ru. Tel: 97 903 00 98

Abstract: In the article, the competent approach of the literature teacher in instilling positive qualities, spiritual values in the minds of students and young people, as well as creating an innovative educational environment in teaching works of art, ensuring its full compliance with international standards, is analyzed as one of the problems of today's world.

Key words: Spirituality, value, fiction, education and upbringing, competence approach, innovation, state education standard, modern technology, media tools.

O'zbekiston Respublikasida dunyoning rivojlangan mamlakatlari kabi kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirishga yanada e'tibor berilib, o'quv dasturlari va o'quv fanlari bo'yicha DTS kompetentsiyali yondashuv asosida qayta ishlandi.

Mazkur kompetentsiyali yondashuv asosida shakllantirilgan DTS amaliyotga joriy etish ta'lim-tarbiya jarayonining boshqa tarkibiy qismlari: o'qitish metodlari, vositalari va shakllariga innovatsiya kiritish orqali modernizatsiyalashni talab etadi.

Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek, "Ta'lim va tarbiya, ilm-fan, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, sportni rivojlantirish masalalari, yoshlarimizning chuqur bilimga ega bo'lishi, chet tillarini va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallashini ta'minlash doimiy ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi" [1].

Zamonaviy texnologiyalar rivojlanish holati, birinchi navbatda, jamiyatning intellektual salohiyatiga, ya'ni ta'lim sohasi taraqqiyotiga bog'liq.

Demak, ta'lim usullari va ularning pedagogik samaradorlikni oshirishdagi o'rnini aniqlash mamlakatimiz taraqqiyotidagi belgilovchi, hatto hal qiluvchi odim sanaladi.

Adabiyot inson ruhiyatiga ko'rsata oluvchi ta'sir kuchi jihatidan hamisha boshqa ma'naviy sohalaridan ustun bo'lib kelgan. Shu bois uning zimmasiga og'irroq mas'uliyat yuklangan.

Adabiyot o'qituvchisining boshqaruvchi sifatida kichik tadqiqot va innovatsion faoliyatni tashkil etish jarayonida qo'llanilishi rejalashtirilayotgan interfaol metodlar mohiyatidan to'la xabardorligi kifoya qilmay, shu bilan birga, darsni tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri tashkillashtirishi, o'quvchilar faoliyatini nazorat ostiga olishi, kutilmagan tasodif yuz bergan yoki xatoga yo'l qo'yilgan holatlarni tezda seza olishi, muammoli vaziyatlarni to'g'ri tashkil etishi, shuningdek, dars davomida ma'lum tuzatishlarni kiritib borishi hamda pedagogik kompetentlikka ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Chuqur kuzatishlar natijasida aytilgan quyidagi fikrlarga e'tibor beraylik. Ta'limdagi innovatsiyalar chetniki bo'lgani uchun emas, balki samarali bo'lgani uchun o'qitish amaliyotida qo'llanishi kerak. Hozirda innovatsion yondashuvlarning samara berishidan ko'ra qo'llanish faktining o'zi muhimday bo'lib turibdi [2].

Demak, o'quvchilarni shunchaki o'qishga emas, o'qib o'rganishga, o'rgatib o'rganishga, o'rganib o'rganishga hamda shu ma'lumotlarni amalda hayotga tatbiq etishga undaydigan zamonaviy usullarga asoslangan pedagogik jarayon maqsadga yo'naltirilgan tizimli, innovatsion, kompetentsiyaviy yondashuvlar amaliyotidir.

Taniqli metodist olim Q.Yo'ldosh "Kompetentlik ko'proq o'qish kechimida shakllantiriladi, lekin faqat maktab yoki boshqa o'quv yurtidagina emas, balki oilada, ishda, siyosatda, diniy aqidalarga amal qilishda, madaniyatga munosabatda ham qaror topadi. Shu sababli kompetentlikni shakllantirish barcha ta'limiy-madaniy vaziyatning birgalikdagi faoliyati natijasida shakllantiriladi", deb fikr bildiradi.

GLOBAL MUAMMO IQLIM O'ZGARISHIDA QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA O'ZGARISHLARNI O'RGANISHDA INNOVATSION ILMIY YONDASHUVLAR Raxmonov Ikrom Abdulkarimovich, Xudayberdiyeva Beg'am Nabibullayevna	1188
POETIK TURKUMLAR TADRIJI VA TAKOMILI Obidaxon Fayzullayeva	1190
TARIXIY TETRALOGIYADA OBRAZLAR YARATISHDA XALQ OG'ZAKI IJODINING O'RNI Israilova Madina Yursun qizi, Qo'ylieva Gulchehra Nazorqulovna	1194
XURSHID DO'STMUHAMMADNING "BOZOR" ROMANIDA BADIY NUTQ VA USLUB Saymurotova Ijobat Tursunqulovna.....	1199
LUQMONI HAKIM SIYRATINING SHARQ-MUSULMON MANBALARIDAGI TALQINI Rahmatjon To'raqulov Zokir o'g'li	1203
SAYQALIYNING G'AZALNAVISLIK MAHORATI Muzaffar Mamatqulov Rahmonqulovich, Rahmonqulova Kamola Muzaffar qizi	1207
O'ZBEK ADABIYOTIDA HAJVCHILIKNING SHAKLLANISHI Oqbo'tayev Elbek Abdurazzoq o'g'li.....	1210
YOSHLAR ONGIGA MA'NAVIY QADRIYATLARNI SINGDIRISHDA INNOVATSION VA KOMPETENTSIYAVIY YONDASHUV Sariboyeva Maxsuda O'rinboyevna	1214
BADIY OBRAZ TALQINIDA BIOGRAFIK METODNING O'RNI To'rayeva Dilnoza Nematullaevna.....	1217
BADIY ADABIYOT VA FOLKLORIZM (Abdulla Qodiriy nasri misolida) Primov Abdulatif Abduraximovich.....	1222
ЁЗУВЧИНИНГ УСЛУБИЙ ИНДИВИДУАЛЛИГИ Тўйчиев Абдунаби Худойбердиевич	1225
RUBOIY VAZNINI ANIQLASHDA MUKAMMAL BADIY MATNINING O'RNI Oybek Normurodov Berdimurod o'g'li	1228
BADIY ASAR KONTEKSTIDA IJODKOR DUNYOQARASHI Babayeva Sevara Baxtiyor qizi	1232
QADIMGI TURKIY BUDDAVIYLIK SHE'RIYATIGA DOIR QARASHLAR TADQIQI Qarshiyeva Shohsanam Abdurashidovna	1234
MUQIMIY ASARLARI MATNIY MUAMMOLARI Rahmonov Vahob	1238
XALQ MAQOLLARI LINGVOMADANIYATNING IFODACHISI SIFATIDA Axrorov Alisher Akbarovich	1242
O'ZBEK TILIDA SO'Z MA'NOSI TADQIQI (TILSHUNOS OLIM MIRAZIZ MIRTOJIYEV TALQINI MISOLIDA) O'razov Alisher Doniyorovich, Yo'ldosheva Zebxon Zuhridin qizi	1245
AZIM HOJIYEVNING O'ZBEK TILIDA SO'Z YASALISHI MA'NOSIGA DOIR QARASHLARI Mamatqulov Azizbek.....	1247
TURKIY TILLARDA GRAMMATIK KATEGORIYA MASALASI Eliboev Islom Asqar o'g'li	1250
GULXANIYNING "ZARBULMASAL" ASARIDA PAREMIK JANRLARNI O'RGANISH Eshboyeva Fazilat	1252
TERMINOLOGIYADA DUBLETLIK VA SINONIMLIK MUNOSABATI Ermatov Ixtiyor	1255
BADIY ASAR TILI VA SHEVA MUNOSABATI Xudoyqulova Shoxistaxon Valiyevna	1258
HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI (YOKI HOZIRGI ADABIY O'ZBEK TILI) TUSHUNCHASI HAQIDA MULOHAZALAR Abdullayev J.	1262
BADIY ASARLAR TILIDA MAQOL VA IBORALARNING QO'LLANISHI Dexkanova L.A	1264
XX ASR 30-YILLAR NASRIY ASARLARIDA O'LCHOV BIRLIKLARINI BILDIRGAN ARXAIK VA TARIXIY SO'ZLAR Qambarov Ma'rifjon Abduhakimovich.....	1268